



## MUSIQIY RITM VA TASVIRIY SAN'AT: SINESTEZIYA FENOMENI

**Muallif:** N.E.Axmedova<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14466563>

### ANNOTATSIYA

Maqola musiqa va tasviriy san'atning birlashgan holda inson hissiy va ijodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini estetik jihatdan yoritib beradi. Zamonaviy dunyoda san'at ta'limi nafaqat estetik va madaniy bilimlarni, balki ijodkorlikni rivojlantirish va muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) modeli orqali musiqa va tasviriy san'atni uyg'unlashtirish, bolalarning ijodiy fikrlashini va hissiy idrokini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi borasida ham maqolada fikrlar izoh etilgan.


**Kalit so'zlar:** musiqa va tasviriy san'at, ijodiy fikrlash, STEAM modeli, rang va musiqa uyg'unligi, estetik did, bolalar ijodi.

Zamonaviy dunyoda san'at ta'limi nafaqat estetik va madaniy bilimlarni, balki ijodkorlikni rivojlantirish va muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Ta'lim texnologiyalari – bu o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, balki qobiliyatlarni rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishni kuchaytirish uchun foydalaniladigan uslub, vosita va texnologiyalar majmuasidir. Ular nafaqat bilim darajani oshirishga, balki ijodiy, analitik va texnik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli platformalar, masalan, Adobe Photoshop yoki GarageBand orqali bolalar ranglar va ohanglar bilan ijodiy ishlashni, 3D modellashtirish texnologiyalari yordamida san'at asarlarini hajmli formatda yaratishni o'rganadilar. San'at ta'limidagi texnologiyalar STEAM konsepsiyasini amalga oshirishning muhim qismi hisoblanadi. Musiqa va tasviriy san'at insonda go'zallikni idrok etish, uni qadrlash va anglash ko'nikmasini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri deb hisoblash mumkin. STEAM texnologiyasi ushbu jarayonni boyitib, musiqa va san'atning rang-barangligi orqali bolalarning ijodiy fikrlashini va hissiy idrokini shakllantirish imkonini beradi. Estetik did nafaqat san'at asarlarini tushunish va qadrlashda, balki kundalik hayotda nafislikka intilish va atrof-muhitni go'zallik bilan idrok qilishda muhim ahamiyatga ega. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olgan kross-disiplinar ta'lim modeli bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Yorug'likning tabiatida fotonlar deb ataluvchi zarralar elektromagnit to'lqinlar g'ilofida harakat qilganidek, musiqiy ohanglar ham akustik to'lqinlar sifatida tarqaladi. Ob'ektga yorug'lik tushganda, uchta hodisadan biri yuz beradi: yorug'lik so'riladi va

issiqlik energiyasiga aylanishi mumkin (bu xuddi musiqaning past notalarda «yutilishi» kabi); yorug'lik ob'ekt orqali o'tishi mumkin (musiqadagi yumshoq tonlarning oqib o'tishiga o'xshash); yoki u nurni qaytarib aks ettirishi mumkin (musiqadagi aks-sado kabi).

Shunday qilib, ranglarning yorug'lik bilan munosabatlari musiqadagi tovush va ovoz uyg'unligini ifodalashga xizmat qiladi. Rang va musiqa uyg'unligi ijodkorlar uchun yangi ifoda imkoniyatlarini ochib beradi va inson hissiy dunyosini boyitadi (1-rasmga qarang).



1-pacm. Xramatik rang tusalari

Rang va musiqa insonning estetik dunyosini shakllantiruvchi asosiy vositalardir. Ular go'zallikni his qilish va uni qadrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ranglarning spektri va musiqiy ohanglar orqali inson hissiyotlarini ifoda etishi, ularning bir-biri bilan uyg'unligi estetik didni boyitadi. Ayniqsa, bolalar uchun musiqaning ritmi va ranglarning intensivligi ularning hissiy dunyosiga ta'sir ko'rsatib, ijodiy salohiyatni rivojlantiradi. Ayniqsa bolalarning tasavvurlarini kengaytirish va hissiy idroklarini boyitishda ranglar va musiqa uyg'unligi katta ahamiyatga ega. Ranglarning yorqinligi yoki yumshoqligi bolalar ongiga chuqur ta'sir ko'rsatib, ularni yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Musiqaning ohanglari esa bolaning ichki dunyosini boyitib, o'z his-tuyg'ularini o'rganishga va ifodalashga yordam beradi. Shu sababli, rang va musiqaning estetik tarbiyadagi ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Rang va musiqa uyg'unligi inson hissiyotlarini boshqarish va yo'naltirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir rang va ohang o'ziga xos hissiy ta'sirga ega:

- Qizil rang – energiya va jo'shqinlikni ifodalaydi, musiqada bu tez ritm va yuqori dinamik ohanglar bilan uyg'unlashadi.
- Moviy rang – osoyishtalik va mulohazani aks ettiradi, bu yumshoq va sokin musiqiy kompozitsiyalarni eslatadi.
- Sariq rang – ilqlik va quvnoqlikni bildiradi, bu esa yorqin ohangli va ko'tarinki musiqaga mos keladi.
- Yashil rang – tabiatning uyg'unligi va tinchlikni ifodalaydi, musiqada bu muvozanatli va ritmik kompozitsiyalar bilan uyg'unlashadi.

Rang va musiqa birgalikda ishlatilganda, ular insonning nafaqat hissiyotlariga, balki ichki ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa stressni kamaytirish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish va hayotiy motivatsiyani oshirishda foydali bo'ladi. Ijodiy jarayonda rang va musiqaning uyg'unligini birlashtirish yangi ifoda vositalarini ochadi. Rassomlar musiqadan ilhomlanib, ohanglarni ranglar orqali aks ettirishi mumkin, xuddi shuningdek, musiqachilar rang-barang tasvirlardan ilhom olib, kompozitsiyalar yaratishi mumkin.

San'at va musiqa birlashmasi orqali yaratilgan asarlar tomoshabin va tinglovchiga yanada chuqurroq hissiy tajriba beradi. Masalan:

- Rang-barang animatsiyalar musiqiy ritmlarni aks ettiradi.
- Musiqiy spektakllar uchun dekoratsiyalar rang va ohanglarning uyg'unligini namoyon qiladi.
- Raqamli san'atda musiqiy ma'lumotlar rangli grafikaga aylantiriladi.

Ta'lim jarayonida musiqa va ranglarning uyg'unligi bolalarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhimdir. Ranglarni musiqiy ohanglar bilan uyg'unlashtirish bolalarda o'z hissiyotlarini ifoda qilish, ijodkorlikni rivojlantirish va go'zallikni qadrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Misol uchun:

- Bolalarga musiqa tinglash orqali o'z his-tuyg'ularini qog'ozga ranglar orqali aks ettirish taklif qilinadi.
- Ranglar va musiqadan foydalanib, ijodiy loyihalar yaratiladi.
- O'yin shaklida musiqa va ranglarni uyg'unlashtirish orqali bolalarning idroki va hissiy qabul qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Rang va musiqa insonning estetik dunyosini shakllantiruvchi eng muhim vositalardan bo'lib, ular hissiyotlarni boshqarish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish va ma'naviy boylikni rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ularning uyg'unligi inson qalbida ijodiy ilhom va hissiy uyg'unlikni uyg'otadi. Bu uyg'unlik bolalar ijodini rivojlantirishda, ularning hissiy idrokini kengaytirishda va o'z dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Rang va musiqa nafaqat ijodiy jarayonlarni boyitadi, balki ta'limning yangi metodlarini ishlab chiqishda, bolalar va kattalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ham yangi imkoniyatlar yaratadi. STEAM konsepsiyasi doirasida rang va musiqaning uyg'unligi nafaqat san'at asarlarining qimmatini oshiradi, balki zamonaviy ta'lim jarayoniga estetik va hissiy zavq olib kiradi. Shu sababli, bu ikki san'at turining uyg'unligi nafaqat ijodkorlar uchun, balki butun insoniyat uchun cheksiz ilhom va imkoniyat manbai hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ikrom Akbarov "Musiqqa lug'ati" Toshkent. "G'afur G'ulom" 1987
- Ф.Караматов "Узбекские народные инструменты" Г.Гуляма 1979
- Nafisa Yusupova "Musiqqa savodi, metodikasi va ritmikasi", "Musiqqa" nashroiyyoti Toshkent 2010
- Р.Ш. Халилов. Учебное пособие «Акварель» Ташкент 2009 г. (5-16 betlar)
- N.V.Gilmanova. "Yorug'lik va rang" O'quv qo'llanma.Toshkent- 2012, S.288
- Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 302-308.
- Akhmedova, N. E. (2023). Developing artistic and aesthetic competence in the education of future teachers of fine arts in traditional and folk art. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 170-173.